




МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илимий-методикалық журнал

№ 3/3 2024



гуманитарные науки
естественные науки
технические науки





МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2024

3/3-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ғәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

Нөкис

3/3-сан 2024

ИЮНЬ

Шөлкемлестіріушілер:

Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириу Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ	Уролбой МИРСАНОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Сафо МАТЧОН
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ	Шукурулло МАРДОНОВ
Сапардурды АБАЕВ	Камаладин МАТЯКУБОВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ	Барлықбай ПРЕНОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Раьно ОРИПОВА
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ	Фуркат РАЖАБОВ
Интизар АБДИРИМОВА	Мукаддас РАХМАНОВА
Тўлкин АЛЛАЁРОВ	Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)
Марифжон АХМЕДОВ	Дилшода САПАРБАЕВА
Умида БАҲАДИРОВА	Феруза САПАЕВА
Фархад БАБАШЕВ	Зайниддин САНАҚУЛОВ
Ботир БОЙМЕТОВ	Мухаббат САЛАЕВА
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Қаххор ТУРСУНОВ
Шахло БОТИРОВА	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Нурзода ТОШЕВА
Асқар ДЖУМАШЕВ	Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Тажибай УТЕБАЕВ
Алишер ЖУМАНОВ	Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Холбой ИБРАГИМОВ	Амангелди КАМАЛОВ
Шохида ИСТАМОВА	Вохид КАРАЕВ
Умида ИБРАГИМОВА	Гулмира ҚАРЛЫБАЕВА
Лола ИСРОИЛОВА	Ризамат ШОДИЕВ
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз, Қазақстан)	Зафар ЧОРИШАНБИЕВ
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Асқарбай НИЯЗОВ	Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Сабит НУРЖАНОВ	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Захия НАРИМБЕТОВА	Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Ҳушбоқ НОРБЎТАЕВ	Гулрухсор ЭРҒАШЕВА
Улфат МАҲҚАМОВ	Гавхар ЭШЧАНОВА
	Қонысбай ЮСУПОВ



МАЗМУНЫ

ТИЛ ХАМ ӘДЕБИЯТ

Umarova Ú. Kórkem detal máselesi hám ádebiyattaniw ilimi	8
Тобаназаров А. П. Әдебиат сабақларында жазыўшының өмирбаяны хәм дөретиўшилигин үйрениў мәселеси	12
Тобаназаров А. П. Прозалық шығармаларды оқытыў мәселеси (7-класс мысалында)	21
Yuldasheva Sh.Sh. O'zbek tilini multilingual muhitda o'qitishning o'ziga xosligi	30
Mambetova I. J. Polietnik ta'lim muhitida chet tilini o'qitishda multimediyaviy o'quv adabiyotlaridan samarali foydalanish	39
Norova Sh.B. Asqad Muxtorning "Chinor" romanida paremalarning badiiy-stilistik xususiyatlari	47
Юлдашева Д.М. Э.Сепир ва Л.В.Шербанинг илмий услубий таълимотининг асосий концептлари	52
Yusupova G. Ona tili darslarida o'quvchilarda nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish yo'llari	57
Omonova D., Omanova M. Qo'qon adabiy muhitida ayol shoirlar ijodi	63
Avezova D. Ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish usullari	68
Jiyanova N., Maksumova S., Salisheva Z. "Semema va uning tarkibiy qismlari"ni tahlil etishda grafik organayzerlardan foydalanishning amaliy ahamiyati	73
Allayorov T.R. Ona tili darslarida ta'limiy o'yinlarning ahamiyati	81
Yembergenova U.A. Axborot texnologiyalari yo'nalishi talabalariga kasbiy leksikani o'qitishning samarali usullari	86
Пазилов М.С. Реклама матнларида сўз тартибининг стилистик хусусиятлари	90
Sunnatov T. Estetika va metaetikaning badiiy uslublar rivojlanish dinamikasi	99
Алтамишева Ё.М. О формировании отечественных терминологических словарей	105
Хамидова Н.Т., Хамидов Д. Мультимедийные технологии обучения на уроках русского языка в ВУЗе	110
Туранова С.Д. Классификация переходных явлений частей речи	113
Ahmetova M.I. Teachers perspectives in EFL classes	118
Abdanbekova N.R. Speaking as one of the language competence	122

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Nauruzbaeva A.S. Mektep bag'darlamalarinin mazmunin jetilistiriw mashqalasi	126
Темирбекова А.О., Niyazberdiev A. Ja'na renessans mumkinshiliklari	132
Aytmbetov M.Z. Xalq pedagogikasi boyinsha ilimiy-izertlewler alip bariwdin aktual mashqalalari	135
Пурханов Ю.Е. Шаңарақ хакқында шығыс ойшылларының педагогикалық хәм психологиялық көз- караслары	139
Kazimbetova Z. M. Testologiyaniñ teoriya hám metodologiyalıq tárepi	145
Aytmbetov M.Z. Xalıq pedagogikasi - tárbıyalıq islerdiñ tiykarǵı deregi sıpatında	151
Shrazov A.Sh. Huqıqiy mádeniyat hám huqıqtı qorǵaw iskerligi	155
Mamaxanova J.N. O'quv tajriba maydonida o'quvchilarda ekologik bilim va madaniyatni rivojlantirish texnologiyasi	161
Bekniyazov B.S. Umumta'lim maktab rahbarlarining boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishda taym-menejment yondashuvining ahamiyati	166
Kusharbayev D. U. Innovatsion pedagogika: ta'limning yangi paradigmasi	172
Pulatov Dj.A. Oliy ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar monitoringini takomillashtirish sohasidagi xalqaro tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari	178
Ярматов А.Н. Ўқувчи – ёшларни ватанпарварлик, миллий қадрият ва қонуларга ҳурмат руҳида тарбиялашда «ватан таянчи» ҳаракатининг ўрни	184
Hamroyev R. R. Oliy ta'limda ijtimoiy-gumanitar fanlarni axborot texnologiyalaridan foydalanib o'qitishning muhim yo'nalishlari	192
Haydarova Z.N. Individual yondashuv asosida hozirgi zamon o'quvchilarida raqamli savodxonlikni shakllantirish	199



Nizomxonov S.E. O'quvchilarning axborot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik muommolari	551
Alimov S.Kh., Nurmonova E'.U., Bakhriddinova A.D., Almuratov F.M. The Morse's Lemma and some of its applications	558

БАСЛАЎЧИ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТЎРБИЯ

Nagmetova N.M. Baslawish klaslarda tárbiya pánin oqitiwdiñ ilimiy-metodikaliq tiykarlari	565
Jumasheva G.X., Ablyakimova R., Haytimbetova Sh.F. Balalarda ilimiy dúnya kózqarastı qáiplestiriwdiñ social - pedagogikalıq tiykarlari	570
Халиков А.А., Орпикова Д.М. Ўқитувчининг касбий тайёргарлигида нотиклик қобилятининг аҳамияти	575
Muhammadiyeva F.T. Qadriyatlar nazariyalari asosida bolalarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashning tarixiy tahlili	581
Azamatova D.Sh., Xolmirzayeva M.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning ahamiyati	585
Shukirullaeva S.A. Kompetentsiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish	590
Radjabova G.M. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faolligini shakllantirish	595
Ibragimova M.S. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ nutq madaniyatini shakllantirish	600
Кайнарова И.В. Бошланғич синф ўқувчиларининг ўқув - билиш фаоллигини ривожлантиришда эвристик таълим ва ижодкорлик	605
Sariqboyeva Z.Ya. Bo'lg'usi tarbiyachilarning bolalar adabiyoti bilan ishlashda kitoblardan foydalanishga tayyorligi tushunchasi	612
Allayarov M.J. Boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy tarbiya darslarida milliy harakatli o'yinlardan foydalanishning muhim omillari	617
Pirniyazova Sh.O. Boshlang'ich sinflarda nazariy ma'lumotga qiziqish uyg'otish	624
Rajabova M.T. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi namunalari o'rni	630
Irisboyeva Yo.O'. Bolalarda to'plam haqidagi g'oyalarni rivojlantirishning o'ziga xosligi	636
Tajbenova S.S. "Ona tili" fanidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarida lingvistik kompetensiyaga doir talablar	641
Sariqboyeva Z. Maktabgacha ta'lim muassasalarida nasriy va she'riy asarlar ustida ishlashdagi o'ziga xosliklar	647
Niyozova M.N. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ishbilarmonlik o'yinlaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	651
Allayarov M.J. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tezlik qobiliyatini rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari	656
Norbo'tayev X. B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatga oid variativ tushunchalarni shakllantirish metodikasi	661
Irisboyeva Yo.O'. Maktabgacha yoshdagi bolalarning predmetlar miqdorini idrok qilish, esda olib qolish va taqqoslash ko'nikmalari shakllantirish	667
Xudoyberdiyev G'.B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini rivojlantirish	673
Imoilova S.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'atini boyitishda interfaol metodlardan samarali foydalanish	679
Berdiyeva M.M., Muratova D.E. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida syujetli-rolli o'yinlarning ahamiyati	685
Musayev A.Sh. Chaqaloqlar eshitish qobiliyatini tekshirish usullari	690
Ishmatova O.S. Alohida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishda fonetik ritmikadan foydalanishning dolzarbligi va zarurati	699
G'afforova X.Ya., Shamsiddinova D.B. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarni steam texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik shartlari	706
Utegenova D. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirish asoslari	713

Yo'ldosheva Sh.B. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarining ijodiy tafakkurini shakllantirish va og'zaki nutqini o'stirish	717
Meyliyeveva L. Tarbiyachining innovatsion faoliyatini shakllantirish shartlari	723
Хайдарова О.А. Методика начального образования особенности изучения предлогов в начальных классах	730
Худайбергенова Н.К. Формирование навыков устного и письменного общения учащихся на родном языке и занятия по читательской грамотности	736
Жумашева Г., Бекназарова Х., Хайтимбетова Ш.Ф. Игра как ведущая деятельность в дошкольном возрасте	740
Астанакулова М., Жабборова Ш., Фарходова М. Состояние управленческой культуры специалистов практиков дошкольного образования	745

ТАСВИРИЙ САЪНАТ

Исмаилова М., Уразмбетова Л. Актриса болып туўылған инсан	752
Исмаилова М., Уразмбетова Л. Көркем өнер мектебин жаратқан актёр	757

СОЦИАЛЛЫҚ ПЕДАГОГИКА

Normatova Z.A. Uzluksiz ta'lim modellari kontekstida inson kapitalini boshqarish metodikasi	761
Joldasov I.S. Talabalarda amaliy kompetensiyani shakllantirishning axborot-loyiha texnologiyalari	767
Норматова З.А. Индивидуал йўналтирилган таълим тамойиллари асосида инсон капиталини таъминлашнинг зарурий шарт-шароитлари	772
Исмаилова Р., Исмаилова З.К. Оилавий кадриятлар – мустахкам оила гаровидир	776

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ХАМ СПОРТ

Xudayberdiyev N.A. Jismoniy tarbiya darslari va gandbol sport to'garak mashg'ulotlari	785
Xudayberdiyev N.A. Sport mashg'ulotlari jarayonida yosh voleybolchilarni tayyorlash	788
Pardabayeva M.S. O'q otish sport turida yoshning ahamiyati	792
Yaqubova D.B. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarini tayyorlashda kasbiy motivatsiyasining ahamiyati	798
Kodirov M.A., Bakirov I.X. Yosh basketbol bilan shug'ullanuvchi o'quvchilarning umumiy chidamliligini tarbiyalash masalalari	804
Xudayberganov Z.B. Erkin kurashda uslublar xilma-xilligi musobaqalar strategiyasi va natijalariga ta'sirini samarali tahlil qilish	809
Maxmudova M.M. Yosh voleybolchilarni jismoniy va texnik tayyorgarligini takomillashtirishda harakatli o'yinlardan samarali foydalanish masalasi	813
Musayeva D.M. Talabalarni jismoniy va axloqiy-estetik tarbiyalashda sport bayramlarini o'tkazish texnologiyasi	817
Xamidjonov M.U. Boshlang'ich ta'limdagi bolalarning jismoniy faolligini oshirishda jismoniy tarbiya va sportning muhim ahamiyati	822
Tadjibayev J.K. Yoshlar boksida tiklanish strategiyalari: uyqu, ovqatlanish va faol dam olishning roli	826
Tadjibayev J.K. O'smir bokschilarda zarba berish usullarining biomexanik tahlili: samaradorlikni oshirishga ta'siri	833
Kotlov E.V. Yosh basketbolchilarni sport tayyorgarligi masalasi	840
Norqobilov M.N., Oblanazarov F.A. Butterflyay usulida suzuvchilarning kuch tayyorgarligini rivojlantirish	845
Шанк В.В., Болтаев З.Б. Проблемы волейбола от детских спортшкол до профессиональных команд высшего спортивного мастерства в Узбекистане	851
Амонов А.Н. Темпы развития быстроты перемещений и точности ударов у детей 7-8 лет занимающихся настольным теннисом	855



ALOHIDA EHTIYOJLI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA FONETIK RITMIKADAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI VA ZARURATI

Ishmatova O.S.

CHDU Pedagogika kafedrası

Maxsus pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: konstitutsiyaning 50-moddasi, maxsus pedagogika, alohida ehtiyoji bor, inklyuziv ta'lim, koхlear implant, korreksion mashg'ulot, eshitishida muammolari bo'lgan, og'zaki nurq, fonetik ritmika.

Ключевые слова: 50-статья конституции, специальная педагогика, с особыми потребностями, инклюзивное образование, кохлеарный имплант, коррекционное обучение, проблемы со слухом, оральный свет, фонетическая ритмичность.

Key words: article 50 of the constitution special pedagogy, with special needs, inclusive education, cochlear implant, remedial education, hearing problems, oral light, phonetic rhythm.

Jahon miqyosida BMTning «Bola huquqlari to'g'risida» Konvensiyasi, «Nogironlar huquqlari haqida»gi Deklaratsiya nogironligi bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotga erta uyg'unlashuvi muammosini hal qilish, zamonaviy maxsus ta'limning mazmunini yangilash, innovasion g'oyalarning tatbiq etilishiga asos bo'lmoqda. YUNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan «Ta'lim xamma uchun» xalqaro dasturi hamda «Jamoatchilik Asosidagi Reabilitatsiya (JAR) bo'yicha yo'riqnoma»da alohida ehtiyojli bolalarning imkoniyatlariga mos ta'limni tashkil etish, ularni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlarda faol ishtirok etishga tayyorlash, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda ijtimoiy faollik motivatsiyasini rivojlantirish, imkoniyati cheklangan bolalarning g'urur va qadr-qimmatini oshirish orqali inklyuzivlashgan jamiyatga erishish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Dunyo amaliyotida inklyuziv va maxsus ta'lim jarayonida zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish, bo'lajak surdopedagoglarni kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishning didaktik tuzilmasini takomillashtirish va



amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu jumladan zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirishning samarali yondashuvlarini aniqlash, amaliyotga joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni barcha fuqarolar bilan teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlash, ularning turmush faoliyatidagi cheklanishlarini bartaraf etish, to'laqonli hayot kechirishlariga, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy turmushida faol qatnashish zaruriyatini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar alohida dolzarbligicha qolmoqda.

Mamlakatimizda nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularni to'laqonli ta'lim olishi, sog'lom insonlar qatorida jamiyatga uyg'unlashib, ijtimoiy hayotda moslashib ketishining me'yoriy asoslarini yaratishda yangidan yangi yondashuvlar talab etilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida "...aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish" kabi muhim vazifalar belgilandi. Bunda eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslarning og'zaki nutqini muloqot vositasi sifatida rivojlantirish orqali ularni ma'naviy yetuk, har tomonlama uyg'un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yosh avlod sifatida tarbiyalab, voyaga yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrda PF-5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019 yil 29 aprelda PF-5712-son "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida farmonlari, 2020 yil 13 oktyabrda PQ - 4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori, 2020 yil 23 sentyabrda O'RQ-637 "O'zbekiston Respublikasi Ta'lim To'g'risidagi Qonuni" 20 – moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrda 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda, 2023 yil 3-mayda "O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi" ning 50 chi modda 6 chi bandining inklyuziv ta'limga bag'ishlangani belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kar va zaif eshituvchi bolalar ta'limining turli sohalari F.Alimxo'jayeva, N.Bekmurodov, X.Gaynutdinov,



N.Dadaxo‘jayeva Z.Mamarajabova, D.Nazarova, R.Rustamova, U.Fayziyeva, F.Qodirova, D.Yakubjanova hamda G. Abdllayevalarning ilmiy izlanishlarida yoritilgan.

Sh.Amirsaidova, Z.Axmedova, M.Ayupova, L.Mo‘minova, K.Mamedov, D.Nurkeldiyeva, L.Nurmuamedova, R.Shomaxmudova, G‘.Shoumarov, N.Raxmonqulova, V.Raxmonova, X.Pulatova, M.Hamidova, M.Xakimova va boshqalar milliy maxsus pedagogikada rivojlanish muammolarining boshqa toifalari yo‘nalishida izlanishlar olib borganlar. Ular alohida ehtiyojli bolalarning nutqini rivojlantirishda umumiy motorika harakatlarining o‘rni muhim ekanini ta’kidlaganlar. Jumladan, X.Pulatova hamda G.Abdullayeva nutqiy nuqsonlarni bartaraf etishda logoritmika mashg‘ulotlarning samarasini aniqlab, bunga ko‘ra kompleks mashg‘ulotlar tizimini ishlab chiqqanlar. X.Raximova o‘zining izlanishlarida koxlear implantli balalarning nutqini rivojlanitirish uchun xarakatli o‘yinlarga ustivorlik berish lozimligini ta’kidlagan.

MDH davlatlari olimlaridan inson nutqini korreksiyalashda harakatli mashqlar kompleksini qo‘llash zaruriyati tug‘risida B.A.Гринер, Н.С.Самойленко, Н.А.Власова, Д.С.Озерецковский, Ю. А. Флоренская хам ёзган бўлсалар, Ф.Ф.Рай (1960), Э.И.Леонгард(1963), С.А.Зыков (1972), В.И.Бельтюков (1977), Л.В.Нейман (1961), Р.М.Боскис (1963), Е.П.Кузьмичева (1983), И.Г.Багорова (1990), Л.П.Носкова (1998), Т.В.Пелымская (1999), Н.Д.Шматко (2000)va boshqalarning aytib o‘tganlar. Olimlarning ilmiy izlanishlarida kar va zaif eshituvchi bolalarning eshitish idroki ustida ishlashda, og‘zaki nutqini shakllantirish va rivojlantirishda umumiy va mayda motorikasiga tayanish lozimligi tadqiq etilgan. Ayniqsa Н.Д.Шматко, Т. М. Власова Э. И. Леонгард, А.Н. Пфаффенрод larning ishlarida eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar nutqning talaffuz tomonini rivojlantirishda samarali usullaridan biri nutqiy ritmika ekani tadqiq qilingan. А.Р. Лурия esa nutqning harakat bilan uzviy bog‘liqlikda rivojlanishini neyrologik tomondan isbotlagan

Erik Vedenburg, Antonius van Uden (Germaniya), Vorren Esterbruks (Kanada), Enn Dornan(Avstraliya)larning ilmiy izlanishlarida “auditory-verbal metod”, ya’ni eshitish qoldig‘idan optimal foydalanishga asoslangan o‘qitish usullari; R.Romand, Richerd Rieser, Jann Peter, Spek Otto, Isobel Leybold-Johnson, Romain Lanners, Isabella Cicalolarning ilmiy izlanishlari karlar ta’limining tarixiylik tamoyillari, bilingval ta’lim, nutq va tafakkur birligi asosida mazkur toifa bolalarni mustaqil hayotga tayyorlashning tashkiliy va psixologik tomonlari tadqiq etilgan bo‘lsa.

Xorijiy tadqiqotlar tajribasida eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning ta’limi va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi H-Dirksen L.Bauman



, Carol Padden, Tom Humphries, M.Marschark, Harry G.Lang, John Albertini, Thomas Arnold, Kristin Snoddon, Henry Walter, Edward Klopping, Dr Sarah Collinson, Daniel Ling tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. Emil Jak-Dalkroz, V.Grinner, O. Espersen, va nemis tadaqiqotchilari S.Kohler, Chr. Schwabelar logopedik ritmikadan psixoterapevtik usul (jamoaviy-psixologik usul, musikaterapiya) sifatida foydalanish mumkinligini kursatadilar. Ingliz va italiya tadqiqotchilari Céline Hidalgo, Annabelle Zécéri, Jacques Pesnot-Lerousseau, Eric Truy, Stéphane Roman, Simone Falk, Simone Dalla Bella va Daniele Schönlar koxlear implantli bolalarning nutqini rivojlantirishda ularning ritmik qobiliyatlarini o'rganib, ritm orqali o'tkazilgan ta'sir bolalarning nutqiy rivojlanishini yengillashtiradi degan nazariyani ilgari surganlar.

Tadqiqotning maqsadi alohida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishda fonetik ritmikadan foydalanishning korreksion-rivojlantiruvchi imkoniyatlarini o'rganish va metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

alohida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishda fonetik ritmikadan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish;

alohida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishda fonetik ritmikadan foydalanish modelini takomillashtirish;

fonetik ritmika vositasida alohida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilar nutqini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish;

fonetik ritmika vositasida alohida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilar nutqining rivojlanganligini baholash mezonlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida fonetik ritmika vositasida alohida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilar nutqini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Jizzax, Farg'ona va Toshkent shahri maxsus maktab-internatlarining ja'mi 226 nafar (0-1sinf) kar va zaif eshituvchi o'quvchilar jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini fonetik ritmika vositasida alohida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilar nutqini rivojlantirishning mazmuni, usul va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda anketa, so'rovnoma, test, kuzatish, pedagogik eksperiment va matematik statistik qayta ishlash kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari Tadqiqot natijalaridan ko'p tarmoqli maxsus maktabgacha ta'lim tashkiloti maxsus pedagog-hodimlari, eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internat surdopedagog-o'qituvchilari hamda inklyuziv ta'lim resurs-o'qituvchilari o'z faoliyatida



alohida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishda, shu bo'yicha dastur, metodik tavsiyanomalar tuzishda, tavsiya etilayotgan elektron qo'llanma orqali distansion ta'sir etishda foydalanilishlari mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plami, OAK ro'yxatidagi hamda xorijiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan o'quv qo'llanmalar, to'plangan materiallarning dissertatsiya mazmunini yoritishga imkon beradigan hajmda ekanligi va tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kar, zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini fonetik ritmikadan foydalangan holda rivojlantirish oid xorijiy, milliy nazariy qarashlar va tajribalarning tahlil etilganligi, o'quv-tarbiyaviy jarayonning rivojlantiruvchi-pedagogik, didaktik, psixologik tuzilmasi hamda metodik ta'minoti differensial, individual yondashuvlarga asoslangan holda modernizatsiyalanganligi, o'quvchilarda ijtimoiy ko'nikma, malakalarni rivojlantirishning samarali yo'llari aniqlanib, amaliyotga pedagogik jarayonni tashkil etish, monitoring qilish mexanizmlari hamda o'quvchilarni intellektual, ma'naviy, jismoniy, psixologik rivojlantirishga yo'naltirilgan strategiya, texnologiyalar va ularning didaktik muhitga moslashuvchan variatsiyalarining joriy etilgani, refleksiv, kommunikativ va multiritmik metodlarni tanlash va qo'llashda transformasion yondashish tajribasining yo'lga qo'yilgani, "Fonetik ritmika", "Nutqning prosodik tomomi" tushunchalarining amaliy didaktik kontekstlarda qo'llanilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati amaliyotga joriy etilgan tavsiyalardan soha yo'nalishi bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlarda, turli ta'lim dasturlari, loyihalar, oliy ta'lim, maxsus, inklyuziv ta'lim rahbar va pedagoglari malakasini oshirish tizimining o'quv modullari mazmunini ishlab chiqishda, boyitishda, inklyuziv va ixtisoslashtirilgan ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning nutqiy kommunikatsiyaga tayyorlash orqali ijtimoiy hayotga moslashtirish masalalariga bag'ishlangan ma'ruzalar mazmunini to'ldirishda nazariy-metodik, ota-onalar, turli ijtimoiy institutlar mutaxassislari uchun konsultativ, motivasion manba sifatida foydalanilishi bilan tavsiflanadi.



Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Alohida ehtiyojli eshitishida nuqsoni bo'lgan va nutqida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda fonetik ritmikadan foydalanishga oid videomashg' ulotlar "Quvnoq fonetik ritmika" elektron o'quv qo'llanmasiga singdirilgan (O'zbekiston respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligidan № DGU 14617, talabnoma raqami DGU 2022.0199 bo'lgan guvohnoma). Natijada korreksion mashg'ulotlar samaradorligi ta'minlangan;

tadqiqotdan olingan ilmiy-amaliy ma'lumotlardan "Surdopedagogika" nomli darslik (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 2023 yil 29-sentyabr, 438-sonli buyruq) hamda "Audiologiya va surdotexnika" nomli o'quv qo'llanmani ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 2023 yil 29 sentyabr 438-sonli buyruq. – T.: "Firdavs-Shoh" nashriyoti. 2023). Natijada, bo'lajak surdopedagog - o'qituvchilar mutaxassisligi bo'yicha metodik kompetentligi oshirilgan;

alohida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishda fonetik ritmikadan foydalanishning korreksion-rivojlantiruvchi imkoniyatlari o'rganib chiqish orqali mashg'ulotlar jarayonida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning umumiy va mayda motorika xarakterlarini nutq tovushlarining to'g'ri talaffuzi bilan uyg'unlashtirishga doir metodik tavsiyalar "Korreksion mashg'ulotlarda eshitishida nuqsoni bor bolalarning og'zaki nutqini fonetik ritmika orqali rivojlantirish" nomli monografiya (Chirchiq, 2022. ISBN: 978-93-90655-55-8. B.70) hamda "Fonetik ritmika" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 27-martdagi 68-son buyrug'i va № 68-775-guvohnomasi). Natijada korreksion mashg'ulotlar samaradorligi ta'minlangan;

fonetik ritmika mashg'ulotlarining namunaviy ishlanmalari hamda tovushlar talaffuzi ustida ishlash bo'yicha mashg'ulotlarning olib borilishi bo'yicha yo'riqnoma "Og'zaki nutqni shakllantirish va talaffuzga o'rgatishda fonetik ritmika" nomli uslubiy qo'llanmasining mazmuniga singdirilgan (Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti Ilmiy Kengashining 2023 – yil 11- sentabrdagi navbatdan tashqari yig'ilishida nashrga tavsiya etilgan). Natijada, eshitishida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilar nutqini rivojlantirishning variativ usullari takomillashtirilgan, amaliy surdopedagoglar, yakka mashg'ulot o'qituvchilari, musiqa va ritmika hamda eshituv idrokini rivojlantirish kabi korreksion mashg'ulotlari amaliy jihatdan boyitilgan;

alohida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirishda yangi texnologiyalar samaradorligi hamda fonetik ritmika texnologiyasining



og ‘zaki nutqni rivojlantirishdagi kompleks ta’siriga doir ilmiy-metodik ma’lumotlardan “Ma’naviyat va ma’rifat” teleradiokanalida e’fira uzatilgan “Tong nafasi” ko’rsatuvi ssenariyasini tayyorlashda foydalanilgan. Natijada, eshitishda nuqsoni bo’lgan boshlang’ich sinf o’quvchilar nutqini rivojlantirishda fonetik ritmikaning samaradorligini targ’ib etish sharoiti yaratilgan.

Adabiyotlar:

1. Ishmatova, O. S. (2022). Korreksion mashg’ulotlarda eshitishda nuqsoni bor bolalarning og’zaki nutqini fonetik ritmika orqali rivojlantirish. *chirchiq*, 1(1), 70.
2. Ishmatova, O. S. (2022). Mavzu: Eshitishda nuqsoni bor bolalarni estetik tarbiyalashning muhim omil. *uzbek scholar journal*, 10, 333-336.
3. Ishmatova, O. S. (2022). Role of phonetic rhythm in correction of speech defects. *galaxy international interdisciplinary research journal*, 10(11), 487-491.
4. Xusnuddinova, z. x. (2023). Alohida ehtiyojli boshlang’ich sinf o’quvchilarining og’zaki nutqini rivojlantirishda yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari. ta’lim tizimida yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari, 1(1), 365-368.
5. Ishmatova, O. S. (2023). Phonetic rhythmic exercises in working on speech sounds. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 13(1), 79-85.
6. Ishmatova, O. (2023). The effectiveness of using phonetic rhythm in speech development of children with special needs. *science and innovation*, 2(b5), 232-236.
7. Ishmatova, O. & Xolmirzayeva Z. (2023, january). Eshitishda nuqsoni bo’lgan bolalarning rivojlanishida oilaning ro’li. in *международная конференция академических наук* (vol. 2, no. 1, pp. 21-25).

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada alohida ehtiyojli boshlang’ich sinf o’quvchilarining nutqini rivojlantirishda fonetik ritmikadan foydalanishning dolzarbligi va zarurati yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье подчеркивается актуальность и необходимость использования фонетической ритмичности в развитии речи младших школьников с особыми потребностями.

SUMMARY

This article highlights the relevance and necessity of using phonetic rhythmicity in the development of the speech of elementary school students with special needs.